

KOREYA RESPUBLIKASINING PREZIDENTLARI KIM YONG SAM VA KIM DE JUNG DAVRIDAGI SIYOSATI

Abdurazzaqova Kamola

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosiy e`tibor Janubiy Koreyaning XX asr oxiri, ya`ni davlat tarixida alohida iz qoldirgan Prezidentlar Kim Yong Sam va Kim De Jung davrida yuritilgan ichki va tashqi siyosati, amalga oshirilgan islohotlari va bundan tashqari o`sha davrdagi Koreya Respublikasining xalqaro munosabatlardagi rolga qaratilgan. Shu o`rinda ta`kidlab o`tish kerakki, har ikki liderning Shimoliy Koreya bilan aloqalarni yaxshilashga harakat qilishgan, buning uchun o`ziga xos dasturlar ishlab chiqilgan, o`zaro muzokaralar o`tkazilgan.

Kalit so`zlar: Kim Yon Sam, korrupsiya, islohotlar, hukumat, ma`muriyat, iqtisodiyot, birlashtirish siyosati, shimol, janub.

Bugungi kunda O'zbekiston va Koreyani o'zaro strategik hamkorlik aloqalari birlashtirmoqda. Tabiiyki, ikki mamlakat xalqlarining o'zaro qiziqishlari ham kundan kunga oshib bormoqda. Koreya Respublikasi O'zbekiston iqtisodiyotining eng yirik investorlaridan biri hisoblanadi. Minglab koreyslar mamlakatimizga tashrif buyurmoqdalar, o'z navbatida, ko'plab o'zbekistonliklar Koreyaga biznes, ish, o'qish va dam olish uchun borishi natijasida koreyslar o'zbek va rus tillarida, o'zbekistonliklar esa koreys tilida bemalol so'zlashmoqdalar. Aynan yaqin aloqalar tufayli har ikki mamlakat haqida yanada ko'proq ma'lumotga ega bo'lishga intilish ham tabiiy holatdir. Hozirgi kundagi dunyodagi rivojlangan davlatlardan biri bo'lgan Koreyaning bunday istiqbolida shak-shubhasiz rahbarlarning olib boradigan siyosatlari va albatta mehnatkash xalqi asosiy rol o'ynaydi. Davlatning barqaror rivojlanishida asosiy to'siqlardan biri bu – Shimoliy Koreya bilan kelishmovchiliklar hisoblanadi. Lekin shunga qaramay har ikki taraf munosabatlarni iliqlashtirish yo'lida siyosat yuritishmoqda. Koreya Respublikasi rivojlangan iqtisodiyoti, texnikasi bilan jahon bozoriga mustahkam o'rinish olmoqda va xalqaro maydonda o'z so'ziga ega davlatga aylanmoqda.

1992 yilgi saylovlardagi g'alabasi bilan Adolat liberal demokratik partiyasi yetakchisi Kim Yong Sam Janubiy Koreyada harbiy doiralarning uzoq yillik boshqaruv davriga barham berdi. Kim Yong Sam ma'muriyati Oltinchi respublika konstitutsiyasi doirasida ish olib bordi. Yangi hukumat avvalgi ma'muriyat tomonidan katta demokratik o'zgarishlar amalga oshirish to'xtab qolgan bir vaziyatda ish boshladi. Shuning uchun u asosiy e'tiborini jamiyat salomatligini yaxshilash va korrupsiyaga

qarshi kurashga qaratdi, Tashqi siyosatda u Shimoliy Koreya bilan munosabatlarni yaxshilash bilan bir qatorda Janubiy Koreyani globalashtirish yo'lini tutdi.

Jamiyat hayotini yanada demokratlashtirish yo'lida o'ziga xos ishlar amalga oshirildi, intizom mustahkamlandi, mehnatsevarlik va axloqiy- ma'naviy tamoyillarga rioya qilish rag'batlantirildi. Korrupsiyaga qarshi kurash misli ko'rilmagan darajada keng ko'lamga ega bo'ldi. Siyosatchilar, hukumat amaldorlari, harbiy qo'mondonlar, universitet o'qituvchilari va madaniyat arboblarning moliyaviy ahvoli to'g'risida ma'lumotlar nashr etildi. Ko'pchiligi ishdan bo'shsh to'g'risida ariza berishga majbur bo'lishdi yoki kuzatuv ostida bo'lib, oqibatda qamoqqa olinishdi. Kim Yong Samning korrupsiyaga qarshi islohotlari "Sokin inqilob" deb nomlandi, Bu islohot natijasida moliyaviy firibgarliklarda o'zining qarindoshlari ishtirok etganligi ham aniqlandi. Prezident tanlagan yo'l aholining keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlangani sababli mamlakatdagi siyosiy vaziyatning beqarorlashishiga imkon bermadi.

Kim Yong Sam hokimiyat tepasiga kelgach turli yo'nalishlarda islohotlar olib bordi. U eng avvalo siyosatga kuch bilan kirib kelish yo'llarini yopishga harakat qildi. Shu maqsadda, "Davlat xavfsizligini rejalashtirish idorasining siyosatiga aralashishni taqiqlash to'g'risida" gi (Janubiy Koreyaning Markaziy razvedka boshqarmasi vorisi bo'lgan) qonun chiqarildi. Shuningdek, "Harbiylarning siyosiy faoliyatda qatnashishini taqiqlash to'g'risida" gi qonun qabul qilindi. Shu bilan birga, Kim Yong Sam hokimiyat faoliyati va xususan prezidentning shaxsiyatini odamlar uchun ochiqroq qildi. Uzoq yillar ichida birinchi marta prezident saroyi oldidagi ko'chada fuqarolarning erkin harakatlanishiga va bu saroy joylashgan toqqa chiqishiga qo'yilgan taqiqlar oli tashlandi.

Kim Yongam islohotlarining ikkinchi yo'nalishi hukumat va jamiyatning turli sohalaridagi salbiy ijtimoiy hodisalar va avvalambor yuqorida ta'kidlanganidek korrupsiyaga qarshi kurashni o'z ichiga oladi. Ushbu islohot doirasida 1993 yil yozidan boshlab Koreya Respublikasi bank hisobvaraqlarini isloh qilishni boshladi, ya'ni. "Moliya sohasida haqiqiy ismlar tizimi" deb nomlangan narsa joriy etildi. 1993 yilgacha Janubiy Koreyada bank hisob raqamlarini ochishda identifikatsiyalash talab qilinmagan, shuning uchun mamlakatda yuqori lavozimdagi amaldorlarga tegishli bo'lgan soxta nomlar ostida ko'plab hisob raqamlar mavjud edi. Islohot jarayonida hisob raqam egasi bankka shaxsiy guvohnoma bilan kelib, qayta ro'yxatdan o'tishi kerak edi. Natijada, ko'p miqdordagi depozitlarga ega bo'lgan noma'lum hisoblar topildi. Bunday akkauntlarning paydo bo'lish sabablarini o'rganish paytida mamlakatning sobiq prezidentlari Chon Duxvan va Ro Daewoo tomonidan pora olish faktlari aniqlandi. 1993 yildan boshlab, bir necha bosqichda ko'chmas mulkni bosqichma-bosqich tekshirish va qayta ro'yxatdan o'tkazish amalga oshirila boshlandi.

1992 yil ikkinchi yarmidan boshlab ayniqsa sezilarli bo'lib qolgan iqtisodiy turg'unlik Prezident Kim Yong Sam ma'muriyati oldiga iqtisodiyotni tiklash vazifasini qo'ydi va bu hukumatning uchinchi yo`nalishdagi islohotlariga yo`l ochdi. Ma`muriyat birinchi qadam sifatida iqtisodiyotni qayta tiklashga qaratilgan qisqa muddatli chora-tadbirlar zanjiridan iborat yuz kunlik iqtisodiy rejani ishlab chiqdi. Undan keyin bir qator iqtisodiy islohotlar, jumladan moliyaviy va byudjet, bank va ma'muriy sohalarni o`z ichiga olgan iqtisodiy rivojlanishning besh yillik rejasi e'lon qilindi Jahon bozorida Janubiy Koreya tovarlari narxini pasaytirish va raqobatbardoshlik darajasini oshirish uchun hukumat ish haqini cheklash va narxlarni muzlatish siyosatini olib bordi. Bularning natijasida Kim Yong Sam prezidentligining dastlabki uch yilida Janubiy Koreya iqtisodiyotida ijobiy tendentsiyalar va ishlab chiqarishda o`shish kuzatildi.

Kim Yong Samning to'rtinchi islohot yo'nalishi Ro De Vu tomonidan boshlab berilgan mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimining mustaqilligini yanada mustahkamlash edi. Shu maqsadda mahalliy qonunchilik organlariga o`tkazilgan saylovlar muvaffaqiyatli bo'lib o`tdi. Beshinchi yo`nalishdagi islohotlar turizm sohasida amalga oshirildi. Chet elliklarning Koreya madaniyati bilan ko'proq tanishishlari uchun 1994 yil maxsus "Koreyaga tashrif buyurish yili" deb e'lon qilindi.

Kim Yong Sam tashqi siyosatda globallashuv jarayonida ishtirok etishni asosiy vazifa sifatida qo'yib, Qo`shma Shtatlarga e`tiborini qaratishda davom etdi. Shu o`rinda Koreya yarim orolidagi muammolarni hal qilishda Rossiyaning manfaatlarini e`tiborsiz qoldirishi ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanish sur`atlarini pasayishiga olib keldi. Ma'muriyat Shimoliy Koreya bilan munosabatlarni tubdan yaxshilashni rejalashtirgan edi, ammo yo`l qo'yilgan bir qancha taktik xatolar sabab bu rejani amalga oshira olmadi. 1994 yil kuziga rejalashtirilgan ikki davlat rahbarlari Kim Yong Sam va Kim Ir Sen o`rtasidagi uchrashuv kutilgan natijani bermadi va yarim orolda yana bir bor inqirozli vaziyat yuzaga keldi.

O`tkazilgan islohotlarga qaramay, Kim Yong Sam prezidentligi davrida mamlakatning siyosiy va iqtisodiy muvaffaqiyatli o`zgarishlar yuz bermadi. Shu tufayli, undan keyingi hukumat faoliyati iqtisodiy inqiroz davriga to`gri keldi. 1997 yil dekabrda bo'lib o'tgan saylovlarida g'alaba qozongan Kim De Jun 1998 yil 25 fevralda Koreya Respublikasining 15-prezidenti sifatida ish boshladi . 1997 yil oxirida mamlakat Osiyoning bir qator mamlakatlari qatori moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ostida qoldi. Uni yengib o'tish Kim De Jun ma'muriyati faoliyatining muhim yo'nalishi bo'ldi. Janubiy Koreyaning murojaatiga ko'ra, Jahon valyuta fondi va boshqa tashkilotlar unga 50 mlrd. dollardan ortiqroq kredit ajratdi. Biroq, faqatgina xalqaro yordam bilangina inqirozni yengib o'tishning iloji bo'lmadi. Bu o'rinda koreyslarning fidokorona mehnati va ularning vatanparvarligi muhim rol o'ynadi, ular hukumatning iqtisodiyotnitartibga solish uchundavlatga oltin va kumushlarni arzon narxlarda sotish haqidagi chaqiriqlariga labbay deb javob berishdi. Parlamentdagi o'rinlarning

aksariyati muxolifat partiya (Xannaradan) tomonida bo'lganligi tufayli vaziyat yanada murakkablashdi. Shunga qaramay, Kim De Jun ma'muriyati jamoat kuchlarini birlashtira oldi va inqirozdan chiqdi.

O'tkaziladigan islohotlar siyosiy sohada boshlanib, iqtisodiyot va ta'limga ta'sir qilishi rejalashtirildi. Birlashish muammosi haqida gapirar ekan, Kim De Jun o'z siyosati doirasidagi asosiy uchta prinsipni e'lon qildi: 1) Koreya Respublikasi har qanday harbiy provokatsiyalarga qarshi turishi; 2) u biron bir zarar yetkazish yoki Shimoliy Koreyani o'zlashtirish maqsadida emasligi; 3) Janubiy va Shimoliy Koreya o'rtasidagi almashinuv va hamkorlikni rivojlantirish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirish. 1998-yil dekabr oyidan boshlab faol tashqi siyosat yurutildi va Janubi-sharqiy Osiyo federatsiyalari, Xitoy hamda Yaponiya bilan muzokaralar olib bordi. Kim Te Jun Shimoliy Koreyaga nisbatan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan siyosati "oftob tafti" nomini oldi. Ushbu siyosatda avvalgi loyihalar tajribasi, shuningdek, dunyo va Koreyadagi yangi voqeliklar hisobga olingan. Koreyalararo muloqot doirasida Koreya yarim orolining muammolarini hal qilishga qaratildi. Ushbu siyosatning o'ziga xos xususiyati shundaki, u ziddiyatlar eng aniq bo'lgan Shimol va Janubni birlashtirish muammosiga tegmadi. Seul hukumatining maqsadi Janub va Shimol o'rtasidagi munosabatlarda siyosatni iqtisoddan ajratish prinsipi asosida qurish edi. KXDRda Kim De Junning "Oftob tafti" siyosatini ishtiyoq bilan qabul qilmadi.

Janubiy Koreyaning o'zida bu siyosatga nisbatan munosabat noaniq edi. Ba'zilar, agar Shimol hamkorlikka tayyor bo'lmasa, unda Janub kutib turishi mumkin, boshqalari Janub Shimolga juda katta imtiyozlar bermoqda va bu siyosat Shimol ochiq jamiyatga aylangandan keyin amalga oshirilishi kerak deb hisoblashadi. Ushbu siyosat doirasida Shimoliy Koreyaga gumanitar yordam ko'rsatildi, Kimgansan tog'ida (KXDR) erkin turistik zona yaratildi, ajralib qolgan oilalar o'rtasida uchrashuvlar tashkil etildi, ikki mamlakat temir yollarini birlashtirish ishlari boshlab yuborildi. 2000 yilning 13 -15 iyunida Pxenyen shahrida Janubiy Koreya prezidenti Kim Te Jun va Shimoliy Koreya rahbari Kim Chen Ir o'rtasida tarixiy uchrashuv bolib o'tdi. Birinchi marta yuqori darajada ikki tomonlama munosabatlarning keng doirasi muhokama qilindi, Qo'shma Deklaratsiya va boshqa shartnomalar imzolandi. Sammitning asosiy natijasi shimol va janub butun Koreys xalqini birlashtirib, birlashish masalasini mustaqil ravishda hal etishga o'tishga kelishib olganligi edi. Shimolning birinchi bosqichda Konfederatsiya tuzish haqidagi va janubning ikki davlatni birlashtirish uchun Hamdo'stlik yaratish haqidagi takliflardan kelib chiqib, tomonlar shu yo'nalishda harakat qilishga kelishib olishdi. Shunday qilib, Shimol va Janub rahbarlari Koreya yarim orolining deyarli barcha muammolari bo'yicha kelishib olish va o'z ichki ishlarini hal qilish qobiliyatini namoyish etishdi.

Prezident Kim De Junning nafaqat Koreya jamiyati, balki butun insoniyat uchun qilgan xizmatlarining eng yaxshi tasdig'i 2000 yilda unga tinchlik bo'yicha Nobel mukofotining topshirilishi bo'ldi. Kim De Jun demokratiyani rivojlantirishdagi faoliyati, nafaqat Koreya, balki Osiyoda ham inson huquqlariga rioya qilish, Koreya yarim orolida xavfsizlikni ta'minlash va Koreyani tinch va demokratik birlashtirishga qaratilgan siyosati uchun bunday yuksak mukofot bilan taqdirlangan.

Xulosa qilib aytganda, har ikki prezidentlar davrida Koreya Respublikasida o'ziga xos islohotlar olib borilgan. O'rganilgan ma'lumotlar asosida shuni aytib o'tish muminki, Kim Yong Sam va Kim De Jun hukumati Shimol bilan aloqalarni yaxshilashga alohida e'tibor qaratgan va bu ularning siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan. Kim De Jun amalga oshirgan iqtisodiy islohotlar natijasida 1999- yil may oyida Osiyoning eng yorqin liderlari orasidan joy oladi. Kim Yong Sam o'tkazgan moliyaviy islohotlar natijasida mamlakatda mavjud bo'lgan barcha soxta hisob raqamlari aniqlanadi. Shu va boshqa amalga oshirilgan ishlar bilan Janubiy Koreyaning ushbu liderlari mamlakat rivojiga hissa qo'shishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. V.S. Xan "Koreya tarixi". Toshkent-2013
2. Kim G.N "Республика Корея". Алматы-2010
3. Курбанов С.О. Курс лекций по истории Кореи: с древности до конца XXв . С.-Петербург-2002